| | |
|---|---|
| | жилых зданий и сооружений. Ташкент-2000 г.<br>4. KM va K 2.01.16 – 97 Turar joy binolari konstruksiya va elementlarning fizik yemirilishini aniqlash<br>5. Murodullayev N, Davlatov Sh, "Geodeziya" o'quv qo'llanma. Samarqand 2006 yil.<br>6. Murodullayev X.M. "Geodeziya kartografiya" Toshkent, "O'zbekiston" 20002 y<br>7. Nurmatov X.Ye, Utanov U. "Geodeziya " Toshkent, "O'zbekiston" 2002 yil<br>**Axborot manbaalari:**<br>1. www.Ziyo.net<br>2. www.Sure.ru<br>3. www.landkadast.com<br>4. www.guz.ru |
| 7. | Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining kengashida ko'rib chiqildi va kengashning 2024 yil ________________ 1-sonli majlis bilan tasdiqlandi. |
| 8. | **Fan/ modul uchun ma'sullar:**<br>**G'.N.Aliqulov** - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi mudiri, q.x.f.n., dotsent.<br>**N.A.Abdiraxmatov.** – QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi assistenti.<br>**L.X.Fayzullayeva** - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**S.K.Turayev.** – Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshliq o'rinbosari.<br>**K.N.Xujakeldiyev.** – QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi dotsenti. |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori
**O.SH.Bazarov**
__________ 2024 yil

**Ro'yxatga olindi №** 03/04/010
"27" iyun 2024 yil

# KADASTR HUJJATLAR TO'PLAMINI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH FANINING O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 700 000 | - | Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta'lim sohasi: | 720 000 | - | Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60722500 | - | Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino inshootlar kadastri) |

**Qarshi – 2024**

CamScanner yordamida skanerlangan

| Fan/modul kodi KHT4121 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 7-8 | Krediti 4/4 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/ modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4/4 |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Kadastr hujjatlar to'plamini tayyorlash va rasmiylashtirish | 120 | 120 | 240 |

2.

## I. Fanning mazmuni

Fanning asosiy maqsadi - "Kadastr hujjatlar to'plamini tayyorlash va rasmiylashtirish" fanining asosiy maqsadi hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda "Geodeziya kartografiya va kadastr" (bino va inshootlar kadastri) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni yer yegaliklari va yerdan foydalanishlarni doimiy ravishda ro'yxatga olib borish, yer hisobi va yerlarni baholash, turli xildagi qishloq xo'jalik korxonalarini hududini tashkil qilish, istiqbolga yerdan foydalanishni bashorat qilish yerdan foydalanganlik hamda bino va inshootlardan foydalanganlik uchun haq miqdorlarini aniqlash, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer va bino-inshootlardan foydalanish va taqsimlash uslubiyatlarini ishlab chiqish kabi masalalarni mustaqil hal qila oladigan darajada malakali bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - "Geodeziya kartografiya va kadastr" (bino va inshootlar kadastri) mutaxassislari uchun «Kadastr hujjatlar to'plamini tayyorlash va rasmiylashtirish» asosiy fan hisoblanadi, negaki, u yer va bino inshootlarga yegalik qilish va foydalanishlarni davlat ro'yxatini olib borish, yer va bino inshootlarni miqdor va sifat hisobini hamda yer va bino inshootlar maydonlarini baholash ishlarini takomillashtirishga, shuningdek iqtisodiy islohotlar davrida xalq xo'jaligi tarmoqlarini rejalashtirish, ko'chmas mulkka xaq to'lashga oid tadbirlarni amalga oshirishda ko'chmas mulk kadastri ma'lumotlarini qo'llashga qaratilgan.



## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-modul: 1-mavzu: "Kadastr hujjatlar to'plamini tayyorlash va rasmiylashtirish" fani to'g'risida tushuncha.**

Umumiy qoidalar, Yer va boshqa turdagi ko'chmas mulklarni ro'yxatga olish. «Yagona oyna» bo'limi, Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulk .

**2-mavzu: Kadastr hujjatlari.**

Tuman (shahar) yer kadastri daftari. Yer kadastri daftarining tuzilishi, Kadastr uchun suratga olish, Yer kadastri xaritalari va rejalari.

**3-mavzu: Yer, bino va inshootlarning kadastr hujjatlari to'plamiga kiritiladigan ma'lumotlar.**

Yer, bino va inshootlarning kadastr hujjatlari to'plamining tarkibi .Yer, bino va inshootlarning kadastr hujjatlari to'plamiga kiritiladigan ma'lumotlar. Bino va inshootlarning (turar joy yoki noturar joy) kadastr hujjatlari .

**4-mavzu: Yer uchastkasi xatlovi ma'lumotlari.**

Yer uchastkasining kadastr ma'lumotlarini tayyorlash. Yer uchastkasining joriy xatlovi ma'lumotlari. Yer uchastkasining texnik xatlovi: kadastr syomkasi ma'lumotlari. Ko'p yillik daraxtlarning kadastr ma'lumotlarini tayyorlash. Yer uchastkasining maydoni ma'lumotlari, Yer uchastkasi yuzini koordinatalar orqali aniqlash.

**5-mavzu: Yer kadastr hujjatlarini tayyorlash.**

Yer uchastkasi kadastrini yaratishdagi mulkiy huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, Yer uchastkasining kadastr hujjatlarini tayyorlash tartibi. Yer uchastkasi huquqlarini cheklash, chegaralash, servitut belgilash ma'lumotlari, Yer uchastkasi huquqini cheklovchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar.

**2-modul: 6-mavzu: Bino – inshootlar xatlovi ma'lumotlari.**

Bino va inshootlarining texnik xatlovi, Bino va inshootlarining texnik xarakteristikalari, Ko'chmas mulkning rejasini va qaydnomasini tuzish

**7-mavzu: Bino va inshootlarning kadastr hujjatlarini tayyorlash.**

Bino – inshootlar kadastrini yaratishdagi mulkiy huquqni tasdiqlovchi hujjatlar. Bino va inshootlarning kadastr hujjatlarini tayyorlash tartibi. Bino va inshootlar chizmalarini chizish, Kadastr yig'majildini rasmiylashtirish.

**8-mavzu: Ko'chmas mulklarni baholash.**

Ko'chmas mulklarni baholashning huquqiy asoslari va usullari. Baholash ishlarini tashkillashtirish. Jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan binolar va inshootlarni baholash.

**9-mavzu: Muommali qurilishi tugallanmagan bino- inshootlar «kadastr hujjatlar to'plami»ni tayyorlash.**

Mulk huquqini tasdiqlovchi yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi



CamScanner yordamida skanerlangan

hujjatlar mavjud bo'lmagan bino inshootlarga «kadastr hujjatlar to'plami»ni tayyorlash. Umumiy mulkchilik yoki foydalanishda bo'lgan binolar va inshootlarni taqsimlashni rasmiylashtirish tartibi. Yer, bino va inshootlarning kadastr hujjatlari to'plami"ni tayyorlashda kadastr xizmatlaridagi yoki tegishli tashkilotlardagi mavjud quyidagi axborot va manbalardan foydalanish. Qurilishi tugallanmagan bino va inshootlarni boshqa shaxsga o'tkazishda huquq egasining buyurtmasi bo'yicha kadastr yig'majildi tayyorlanadi.

**10-mavzu: Kadastr hujjatlari to'plamini texnik ekspertizadan o'tkazish va davlat ro'yxatiga taqdim etish.**

Kadastr hujjatlari to'plamini texnik ekspertizadan o'tkazish tartibi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi. Bino va inshootlarga bo'lgan mulkiy huquq va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli gidrotexnika inshootlarining parametrlarini hisoblash asoslari va loyihalashni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Yer uchastkasi to'g'risida ma'lumotlar yer maydonining ta'rifi.
2. 1:2000 1:500 masshtabli topografik kadastr planlarini rasmiylashtirish.
3. Yer uchastkasi chegaralarini kelishish va belgilash dalolatnomasi.
4. Yer uchastkasi chegaralari ta'rifi, chegaradoshlar ta'rifi.
5. Chegaradagi geodezik belgilarni saqlash va topshirish dalolatnomasi.
6. Chegara nuqtalarining koordinatalari.
7. Yer uchastkasi maydonini aniqlash.
8. Yer uchastkasi servituti, cheklanishi va chegaralari huquqiy ma'lumoti.
9. Muhofaza zonasi to'g'risida ma'lumot.
10. Bino va inshootlar to'g'risida ma'lumotlar.
11. Bino va inshootlar ta'rifi.
12. Asosiy va qo'shimcha binolar kadastr rejasi, bino qirqimi, bino fasadi.
13. Bino va inshootlarning ichki o'lchov qaydnomasi.
14. Bino va inshootlardan foydalanish huquqini cheklash- chegaralash haqidagi ma'lumotnoma.
15. Maxsus ishlatish tartibi haqidagi ma'lumot.
16. Bino va inshootlarning konstruktiv turlari bo'yicha ma'lumotlar.
17. Bino va inshootlarni baholash.
18. Kadastr hujjatlar to'plamini texnik ekspertizadan o'tkazish va rasmiylashtirish.



Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarinini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### III. I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

### III. II. Kurs ishi tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabalarning ixtisoslashtirilgan konstruktorlik byurosi (MKB) yoki kichik korxonalardagi ishlari;
- talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.);
- masofaviy (distansion) ta'lim va boshqalar.



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari quyidagilar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.<br>2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to'g'risida»gi qonuni.<br>3. O'zbekiston Respublikasi «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonuni.<br>4. Ko'chmas mulk kadastri ma'lumotlarini tayyorlash.<br>5. Korxona, tashkilot va muassasalarga tegishli obektlarning hisobi.<br>6. O'zbekiston Respublikasida Ko'chmas mulk kadastrini yuritish va boshqarish.<br>7. Mahalliy hokimiyatning yer maydonini ajratish to'g'risidagi qarori.<br>8. Bino va inshootlarga egalik qilish va foydalanish to'g'risidagi mahalliy hokimiyati qarorlari.<br>9. Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi davlat hay'atining dalolatnomasi.<br>10. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi guvohnoma. Bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma .<br>11. Ko'chmas mulk kadastri raqamlarini shakllantirish.<br>12. Ko'chmas mulk kadastri ishlarini tashkillashtirishda zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanish.<br>13. O'zbekiston Respublikasida Ko'chmas mulk kadastrini yuritish va boshqarish.<br>14. O'zbekistonda davlat kadastrlarini yuritish borasida qabul qilingan qonun, qaror va farmonlar.<br>15. O'zbekistondagi mavjud yer toifalari.<br>16. Aholi punktlari yerlari.<br>17. Bino va inshootlar klassifikatsiyasi.<br>18. Ko'p va kam qavatli uylar xatlovi.<br>19. Yakka tartibda qurilgan uylar monitoringi.<br>20. Davlat kadastrlarida o'tkazilgan monitoring natijalarini tahlil qilish. Davlat kadastrlarida monitoring o'tkazish natijalari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish masalalari. |
| 3. | **V.Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>"Kadastr hujjatlar to'plamini tayyorlash va rasmiylashtirish" fanini yuqori darajada rivojlantirish omillari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan asosiy masalalalarni yechish, har xil xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** |



| | |
|---|---|
| | talaba olib boriladigan ishni mazmun-mohiyatini bilish, ulardan foydalanish, ***ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>✓ ma'ruzalar;<br>✓ interfaol keys-stadilar;<br>✓ seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>✓ guruhlarda ishlash;<br>✓ taqdimotlarni qilish;<br>✓ individual loyihalar;<br>✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma (test) ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Yer kodeksi".<br>2. To'ychiyev R.D., va boshqalar «Ko'chmas mulkni baholash asoslari» Toshkent, 2002y.<br>3. Абдуллаев А.А., Тошпўлатов С.А., «Осенка недвижимости». Учебное пособие. Ташкент., 2005 г.<br>4. G'.N.Aliqulov, M.M. Aralov, N.A.Abdiraxmatov, Z.M.Qilichev. "Yer va bino inshootlar xatlovi" Qarshi «Intellekt» nashriyoti 2022 y-172 b.<br>5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi "Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 389 –son qarori.<br>6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 dekabrdagi "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1043-son qarori.<br>7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi "Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 66-sonli qarori.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Eshmuradov A. «Ko'chmas mulk kadastri» fanidan ma'ruzalar matni.<br>2. Сборник укрупненних показательей восстановителной стоимости нежилих зданий и сооружений. ГККИНП-18-013-99 Ташкент-1999 г.<br>3. Сборник 1 укрупненних показательей восстановителной стоимости |



CamScanner yordamida skanerlangan